

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“Tasdiqlayman”
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori Sh.S. Shergov

2022 yil

FALSAFA
fanining o'quv dasturi

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi Barcha ta'lim yo'nalishlari uchun

Jizzax - 2022

Fan/Modul kodi FALB204		O'quv yili 2022-2023	Semestr 1-2	Kreditlar 4
Fan/Modul kodi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama
	Falsafa	(60 soat) Ma'ruza 30 Seminar 30	(60 soat)	(120 soat)
2	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarning oliy ta'lim tizimida egallagan dunyoviy, falsafiy va diniy bilimlardan ijtimoiy hayotda maqsadli foydalanish malakalari va to'g'ri fikrlash maxoratini o'rgatishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifalari - falsafiy, ilmiy va diniy bilimlarning tafakkur uslubining o'zgarishiga ta'siri; tabiiy ilmiy bilimlarning ijtimoiy ahamiyati; texnika va texnologiyalarning inson pragmatik ehtiyojlariga javob sifatidagi evolyusiyasi; milliy qadriyatlar, madaniyat va ommaviy madaniyatning o'zaro aloqasi va farqini; dunyoni bilish, haqiqatni anglashda amaliyot va faoliyat uyg'unligini ta'minlashning ahamiyati, to'g'ri fikrning ijobiy maqsadlarga yo'naltirishdagi o'rni; diniy madaniy an'analarda oila va farzand tarbiyasiga oid g'oyalarning ahamiyati; diniy bilimlarning fanatizm (mutaassiblik), dindorlik, shamanizm, terrorizmdan farqi; diniy e'tiqodning yo'nalishlari; global jarayonlar va barqaror taraqqiyot omillarining o'zaro mutanosibligi; ta'lim falsafasi va falsafa ta'limining dunyoqarashni shakllantirishdagi o'rni; global korrupsiyaning sabablari va shakllarini bilish va ularga qarshi kurashish; dunyoviy bilim va malakalarni yangilanayotgan o'zbekistondagi isloxotlar jarayonida to'liq namoyon qilish, ijtimoiy mas'uliyatni xis qilishni o'rgatishdan iborat.</p> <p>Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">I MODUL. FALSAFA</p> <p>1-mavzu. Falsafaning fan va dunyoqarashga doir mohiyati (2 soat)</p> <p>Falsafa dunyoni anglash usuli. Falsafaning predmeti, tuzilishi, funksiyalari, yangi sohalar va o'zgaruvchan xarakteri. Falsafaning jamiyatdagi roli yoki amaliy falsafa. Falsafaning dunyoqarashga doir ijodiy roli. Dunyoqarash shakllari. Fanning dunyoqarashga doir mohiyati, fan taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Falsafa va fanning mutanosibligi, farqi.</p> <p>2-mavzu. Borliq va rivojlanish falsafasi (2 soat)</p> <p>Falsafa va tabiiy fanlarda borliq tushunchasining mohiyati, borliq va yo'qlik dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi. Falsafa va fizikada substansiya, substrat va materiyaning o'zaro aloqasi. In'ikos nazariyasi va uning shakllari. Harakat tushunchasining tavsifi, tiplari va shakllari.</p> <p>Falsafada makon va vaqt dialektikasi. Tabiatniig ontologik maqomi. Biosfera va Noosfera haqidagi ta'limotlar. Tabiatga oid koevoluyusion va invayronmental nazariyalar. Falsafada shakllanish, o'zgarish, rivojlanish va taraqqiyot tushunchalarining mohiyati. Rivojlanishning umumiy qonunlari va kategoriyalari.</p> <p>3-mavzu. Bilish nazariyasi (2 soat)</p> <p>Bilishning mazmuni va mohiyati. Bilimning asosiy turlari va shakllari. Falsafa tarixida bilishga oid qarashlar evolyusiyasi. Bilishda sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalariniig o'zaro aloqasi va farqi. Haqiqatning asosiy shakllari va konsepsiyalari. Haqiqat, amaliyot</p>			

va faoliyatning mutanosibligi. Haqiqatga erishishda tushunish va tushuntirish dialektikasi. Bilish metodologiyasi. Metodlarning tasnifi. Hozirgi zamon metodologiyasi. Tizim, tizimli yondashuv, tizimli tahlil tushunchalarining o'zaro aloqasi va farqi. Tizim dinamikasi.

4-mavzu. Mantiq (2 soat)

Tafakkur mantiqiy fikrlash asosi. Tushuncha, xukm va xulosaning fikr teranligini ta'minlashdagi roli. Dialektik mantiq. Formal mantiq. Matematik mantiq. Tafakkur va til mutanosibligi. Tanqidiy tafakkurning mantiqiy xulosa chiqarishdagi o'rni. Sillogizm nazariyasi. Isbotlash va rad qilishda dalillarning o'rni. Argumentlash (dalillash)ning mantiqiy xulosa chiqarishdagi ahamiyati. Modal mantiq qoidalari. Mantiq va ritorika. Mantiqiy semantika. Fikr va harakat mantig'i.

5-mavzu. Jamiyat va inson falsafasi (2 soat)

Jamiyat tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. Tarixning mazmuni, yo'nalishlari va konsepsiyalari. Sivilizatsiya tushunchasi va uning tiplari. Madaniyat va sivilizatsiya mutanosibligi. Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar. Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixi va hozirgi davrdagi shakllari. Jamiyat rivojida til. Ong, va tafakkur imkoniyatlari. Ongning tabiati, strukturasi va funksiyalari. Onglilik va ongsizlik dialektikasi. Klipli tafakkur va texnologik taraqqiyot. Falsafiy antropologiya va elitologiyaning uyg'unligi. Hayotning ma'nosi va unda insonning vazifasi. Evgenika va bioetika. Hayotni tark etish bosqichlari. Suitsid, parasuitsid, evtanaziya va uning shakllari, esxatologiyaning mohiyati.

6-mavzu. Axloq va qadriyatlar falsafasi (Etika) (2 soat)

Etikaning mohiyati va ahamiyati. Sharq va G'arb mutafakkirlari axloqiy qarashlari dialektikasi. Axloqning funksiyalari. Axloqiy qadriyatlar ierarxiyasi. Yevgenika va bioetikanyng axloqiy jihatlari. Muhabbat, nafrat, baxt, va baxtsizlik. tushunchalarining axloqiy va qadriyatli jihatlari. Ajralish va uning axloqiy kamolotga salbiy ta'siri. Jamiyatning devalvatsiyasi (qadrlanish va qadrsizlanish). Sog'likning qadriyat sifatidagi ahamiyati. Sog'lom turmush tarzi salomatlik omili.

7-mavzu. Estetika nazariyasi (2 soat)

Dunyoni estetik idrok etishning mohiyati Falsafa tarixida estetik qarashlar evolyusiyasi. XX - XXI asrda estetikaning asosiy yo'nalishlari va kategoriyalari. Estetik did va olamni estetik idrok etishning shaxs kamolotiga ta'siri. Estetikaning zamonaviy yondashuvlari. Estetika va dizayn. Reklamanning estetik didni tarbiyalashdagi roli. Xalq amaliy san'atining estetik jihatlari. Olamni virtual va vizual estetik idrok etishning farqlari. Badiiy asarni idrok etishning darajalari. San'atdagi inqiroz (degumanizatsiya). Tushkinlik san'ati va undan chiqish mahorati.

8-mavzu. Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot (2 soat)

Globalashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot tushunchalarining mohiyati. Barqaror taraqqiyotni ta'minlashda globalashuvning ijobiy va salbiy yo'nalishlari. Global jarayonlarning tasnifi. Migratsiya va urbanizatsiya barqarorlik va beqarorlik omili. Global jinoyatchilik va uning oldini olishda xalqaro hamkorlikning zarurati. Sportning global siyosiy xarakteri. Pandemiya - XXI asrning global muammosi. Global makonda axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va vertual reallikning mutanosibligi. Zamonaviy texnikaning insonparvarlashuvi. Global tarbiya va ta'lim barqarorlik omili. Dunyo va o'zbekistonda ta'lim va tarbiya amaliyoti.

2-MODUL . KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH.

9-mavzu. Global korrupsiya ijtimoiy madaniy inqiroz oqibati (2 soat)

Korrupsiya tushunchasining ma'nosi va uning tarixiy ildizlari. Dunyo bo'yicha korrupsiya xolatining tasnifi. Korrupsiyaning shakllari va sabablari. Korupsiyaning ijtimoiy hayotdagi ko'rinishlari. Siyosiy va g'oyaviy korrupsiya xavfsizlikka tahdid. Iqtisodiy korrupsiya va uning namoyon bo'lish shakllari. Kadrlar korrupsiyasi va uni

bartaraf etish mexanizmlari. Ta'lim va fan tizimidagi korrupsiyaning oqibatlarini. Huquq tartibot organlari va jamoat tashkilotlaridagi korrupsiya. Xalqaro korrupsiya iqtisodiy-siyosiy manfaatlar to'qnashuvi oqibati sifatida. Firibgarlik korrupsiya shakli. Ijtimoiy hayotdagi korrupsiyaning amal qilish sohalari.

10-mavzu. Korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari (2 soat)

Dunyo va o'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda tizimli yondashuvning zaruriyati. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro qonunlar va qarorlarning o'zbekistonda ratifikatsiya qilishning ahamiyati, iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari, Korrupsiyaga qarshi fanlararo yondashuvning zarurati. Korrupsiyaning huquqbuzarlik va jinoyat sifatidagi tahlili. Korrupsiya namosn bo'lishining ijtimoiy sohalari, psixologik jihatlari. Korrupsioner xulq atvorining umumiy tavsifi. Korrupsiyaga qarshi kurashning tarixiy an'analari.

3-MODUL. DINSHUNOSLIK

11-mavzu. Din madaniyat fenomeni (2 soat)

Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojuyluk tushunchalarining mohiyati. Dinshunoslikning kategoriyalari. Qadimgi va milliy dinlarning tasnifi. Qur'on va Hadislarda vijdon erkinligi haqidagi dastlabki g'oyalar. Dunyo mamlakatlari va o'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod haqidagi qonun qabul qilinishining ijtimoiy madaniy ahamiyati. Dunyo va o'zbekistonda diniy ma'rifatni takomillashtirishning yo'nalishlari. Xalqaro diniy tashkilotlar va diniy uyushmalar faoliyatining tasnifi. O'zbekistondagi yangi diniy tashkilotlar. Diniy tolerantlik va plyuralizm. Sekulyarizatsiya nazariyasi (davlat va din munosabatlari) va postsekulyar konsepsiyalar.

12-mavzu. Buddaviylik va xristian dini tarixi va falsafasi (2 soat)

Buddaviylik dinining paydo bo'lishi tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari. O'rta asrlarda Dzen buddaviylik ta'limoti. Hozirgi davrda buddaviylikning rivojlanishi. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari va hozirgi zamon. Xristianlikning paydo bo'lishi, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari. Hozirgi davrda xristian dinining rivojlanishi va dunyo davlatlaridagi o'rni. O'zbekistonda xristian dinining rivojlanishi tarixi va hozirgi zamon.

13-mavzu. Islom dini tarixi va falsafasi (2 soat)

Islom dini paydo bo'lishidagi ijtimoiy sharoit. Islom asoslari, oqimlari va yo'nalishlari. Islomning diniy huquqiy maktablari. Sovet Ittifoqida islom diniga munosabat. Dunyo va o'zbekistonda islom dinining mavqei. Qur'on, sura va oyat tushunchalarining ma'nosi. Hadis tushunchasining mohiyati. Hadislarning turlari va tasnifi. Buyuk hadisshunoslar hayoti va ijodi. O'zbekistonda hadisshunoslik rivoji. Kalom falsafasi va fikh. Tasavvuf tushunchasining mazmun-mohiyati, tarixi va asosiy g'oyalarining tasnifi. Tasavvuf tariqatlari. Tasavvuf va hozirgi zamon.

14 mavzu. Islom qadriyatlari (2 soat)

Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik g'oyalari. Islomda atrof muhitni muhofaza qilishning ustivor yo'nalishlari. Islom dinida vatanparvarlik! g'oyalarining talqini. Islomda nikoh va oilaviy munosabatlarida er-xotinning huquq va majburiyatlari. Islomda ota-onalarga munosabat va farzand tarbiyasidagi mas'uliyat. Islomda axloqiy qadriyatlar. Islomda do'stlik, o'zaro yordam va sog'lom turmush tarzining targ'iboti. Islomda fan va ta'lim; madaniyat va san'atga munosabat. Islom arxitekturasi (O'zbekiston arxitektura yodgorliklarining qiyosiy tahlili asosida). Islom dinining jahon sivilizatsiyasi rivojidadagi o'rni.

15-mavzu. Diniy mutaassiblik va dindorlik (2 soat)

Diniy mutaassiblik (fanatizm)ning paydo bo'lishi, mohiyati, asoslari va manbalari. Qo'rquv, savodsizlik va ishonchsizlik diniy mutaassiblik va ekstremizmning asosi. Diniy ekstremizmning tarixiy ildizlari va oqimlari. Kamikadzening ikkiyoqlama

ma'nosi. Dindorlikning paydo bo'lishi va bosqichlari. Diniy fundamentalizmning yo'nalishlari. Kvazidinlar. O'zbekistonda diniy ekstremizmning paydo bo'lishi rivojlanish davrlari va unga qarshi kurash vositalari. Terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va unga qarshi kurash mexanizmlari. Kibermakon, kiberterrorizm, kiberzo'ravonlik (cyberbullying), tushunchalarining mohiyati. Hozirgi davrda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati. Zamonaviy diniy harakatlar va sektalar faoliyatining yo'nalishlari.

IV.SEMINAR MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-MODUL. FALSAFA

1-mavzu. Falsafaning fan va dunyoqarashga doir mohiyati (2 soat)

Reja:

1. Falsafa dunyoni anglash usuli. Falsafaning predmeti, tuzilishi, funksiyalari, yangi sohalari va o'zgaruvchan xarakteri.
2. Falsafaning jamiyatdagi roli yoki amaliy falsafa.
3. Dunyoqarash shakllari. Fanning dunyoqarashga doir mohiyati.
4. Fan taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Falsafa va fanning mutanosibligi, farqi.

2-mavzu. Borliq va rivojlanish falsafasi (2 soat)

Reja:

1. Falsafa va tabiiy fanlarda borliq tushunchasining mohiyati, borliq va yo'qlik dialektikasi.
2. Borliq shakllarining tasnifi. Falsafa va fizikada substansiya, substrat va materiyaning o'zaro aloqasi.
3. Falsafada makon va vaqt dialektikasi.
4. Rivojlanishning umumiy qonunlari va kategoriyalari.

3-mavzu. Bilish nazariyasi (2 soat)

Reja:

1. Bilishning mazmuni va mohiyati. Bilimning asosiy turlari va shakllari.
2. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalariniig o'zaro aloqasi va farqi.
3. Haqiqatning asosiy shakllari va konsepsiyalari. Haqiqat, amaliyot va faoliyatning mutanosibligi.
4. Bilish metodologiyasi. Metodlarning tasnifi. Hozirgi zamon metodologiyasi.

4-mavzu. Mantiq (2 soat)

Reja:

1. Tafakkur mantiqiy fikrlash asosi.
2. Tushuncha, xukm va xulosaning fikr teranligini ta'minlashdagi roli.
3. Dialektik mantiq. Formal mantiq. Matematik mantiq.
4. Isbotlash va rad qilishda dalillarning o'rni.

5-mavzu. Jamiyat va inson falsafasi (2 soat)

Reja:

1. Jamiyat tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari.
2. Tarixning mazmuni, yo'nalishlari va konsepsiyalari. Sivilizatsiya tushunchasi va uning tiplari.
3. Jamiyat rivojida til, ong, va tafakkur imkoniyatlari. Ongning tabiati, strukturasi va funksiyalari. Onglilik va ongsizlik dialektikasi.
4. Falsafiy antropologiya va elitologiyaning uyg'unligi.

6-mavzu. Axloq va qadriyatlar falsafasi (Etika) (2 soat)

Reja:

1. Etikaning mohiyati va ahamiyati.
2. Sharq va G'arb mutafakkirlari axloqiy qarashlari dialektikasi.

3. Axloqning funksiyalari. Axloqiy qadriyatlar ierarxiyasi.
4. Muhabbat, nafrat, baxt va baxtsizlik tushunchalarining axloqiy va qadriyatli jihatlari.

7-mavzu. Estetika nazariyasi (2 soat)

Reja:

1. Dunyoni estetik idrok etishning mohiyati.
2. Falsafa tarixida estetik qarashlar evolyusiyasi. XX - XXI asrda estetikaning asosiy yo'nalishlari va kategoriyalari.
3. Estetik did va olamni estetik idrok etishning shaxs kamolotiga ta'siri.
4. San'atdagi inqiroz (degumanizatsiya). Tushkinlik san'ati va undan chiqish mahorati.

8-mavzu. Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot (2 soat)

Reja:

1. Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot tushunchalarining mohiyati.
2. Barqaror taraqqiyotni ta'minlashda globallashuvning ijobiy va salbiy yo'nalishlari.
3. Global jarayonlarning tasnifi. Migrasiya va urbanizatsiya barqarorlik va beqarorlik omili.
4. Pandemiya - XXI asrning global muammosi. Global makonda axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va virtual reallikning mutanosibligi.

2-MODUL. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH.

9-mavzu. Global korrupsiya ijtimoiy madaniy inqiroz oqibati (2 soat)

Reja:

1. Korrupsiya tushunchasining ma'nosi va uning tarixiy ildizlari.
2. Dunyo buyicha korrupsiya xolatining tasnifi.
3. Korrupsiyaning shakllari va sabablari. Korrupsiyaning ijtimoiy hayotdagi ko'rinishlari.
4. Ta'lim va fan tizimidagi korrupsiyaning oqibatlari.

10-mavzu. Korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari (2 soat)

Reja:

1. Dunyo va O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda tizimli yondashuvning zaruriyati.
2. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro qonunlar va qarorlarning o'zbekistonda ratifikatsiya qilishning ahamiyati, iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari.
3. Korrupsiyaga qarshi fanlararo yondashuvning zarurati.
4. Korrupsioner hulq-atvorining umumiy tavsifi. Korrupsiyaga qarshi kurashning tarixiy an'analari.

3-MODUL. DINSHUNOSLIK

11-mavzu. Din madaniyat fenomeni (2 soat)

Reja:

1. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo'ylik tushunchalarining mohiyati.
2. Dinshunoslikning kategoriyalari.
3. Qadimgi va milliy dinlarning tasnifi.
4. Dunyo mamlakatlari va o'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod haqidagi qonun qabul qilinishining ijtimoiy madaniy ahamiyati.
5. Sekulyarizatsiya nazariyasi (davlat va din munosabatlari) va postsekulyar konsepsiyalar.

12-mavzu. Buddaviylik va xristian dini tarixi va falsafasi (2 soat)

Reja:

1. Buddaviylik dinining paydo bo'lishi tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari.
2. Hozirgi davrda buddaviylikning rivojlanishi. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari va hozirgi zamon.
3. Xristianlikning paydo bo'lishi, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari.
4. Hozirgi davrda xristian dinining rivojlanishi va dunyo davlatlaridagi o'rni.
5. O'zbekistonda xristian dinining rivojlanishi tarixi va hozirgi zamon.

13-mavzu. Islom dini tarixi va falsafasi (2 soat)

Reja:

1. Islom dini paydo bo'lishidagi ijtimoiy sharoit. Islom asoslari, oqimlari va yo'nalishlari.
2. Islomning diniy huquqiy maktablari.
3. Qur'on, sura va oyat tushunchalarining ma'nosi. Hadis tushunchasining mohiyati.
4. Tasavvuf tushunchasining mazmun-mohiyati, tarixi va asosiy g'oyalarning tasnifi. Tasavvuf tariqatlari. Tasavvuf va hozirgi zamon.

14 mavzu. Islom qadriyatlarini (2 soat)

Reja:

1. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik g'oyalari.
2. Islom dinida vatanparvarlik g'oyalarning talqini.
3. Islomda nikoh va oilaviy munosabatlarida er-xotinning huquq va majburiyatlari.
4. Islom arxitekturasi (O'zbekiston arxitektura yodgorliklarining qiyosiy tahlili asosida).

15-mavzu. Diniy mutaassiblik va dindorlik (2 soat)

Reja:

1. Diniy mutaassiblik (fanatizm)ning paydo bo'lishi, mohiyati, asoslari va manbalari.
2. Qo'rquv, savodsizlik va ishonchsizlik diniy mutaassiblik va ekstremizmning asosi.
3. Diniy ekstremizmning tarixiy ildizlari va oqimlari. Kamikadzening ikkiyoqlama ma'nosi.
4. Dindorlikning paydo bo'lishi va bosqichlari.
5. Diniy fundamentalizmning yo'nalishlari. Kvazidinlar.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Falsafa turmush tarzi va dunyoni anglash usuli" mavzusida insho tayyorlash.
2. G'apb mutafakkirlarining borliq haqidagi ta'limotlari (esse tayyorlash).
3. Abu Nasr Forobiy va G'azzoliyning falsafa ilmiga oid qarashlarini qiyosiy tahlil etish (Farobiyning "Siyosat falsafasi" va G'azzoliyning "Kimyoi saodat" asarlari asosida).
4. Evropa mutafakkirlari Platon, Boesiy, R.Dekart, D.Yumning falsafaga oid qarashlarini qiyosiy tahlili.
5. Noklassik ontologiyaning yo'nalishlari va mohiyati bo'yicha esse tayyorlash (M.Xaydeggerning Borliq va vaqt asari asosida).
6. Aristotel, Forobiy va Kant ontologiyasida kategoriyalar tasnifini qiyosiy tahlil etish va farqlarini aniqlash, esse tayyorlash, krossvord tayyorlash.
7. Tabiatshunoslikning falsafiy konsepsiyalari mavzusida esse tayyorlash (Fizika, ximiya, geologiya, minerologiya, astronomiya, informatika sohasida o'zbekistondagi kashfiyot va ixtirolar bo'yicha ma'lumot bazasini tayyorlash).

8. A.Fitratning “Oila asari” da oila kurish tartiblari va farzand tarbiyasi, “Raxbari najot” risolasining “Baxtsiz odamlarning ikki toifasiga” oid qarashlari bo‘yicha esse tayyorlash, videorolik tanlovini o‘tkazish.

9. Avloniyning “Madaniyat to‘lqunlari” maqolasi va E.Toﬄerning “Uchinchi tulkin” asarini qiyosiy tahlil etish.

10. Axborotlashgan jamiyat va uning istiqbollari mavzusida esse tayyorlash (A.Toynbi, E.Toﬄler, S.Xantington asarlarining qiyosiy tahlili asosida).

11. Global jarayonlar dialektikasi mavzusida tahliliy ma’ruza tayyorlash va uning taqdimotini o‘tkazish.

12. “Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari mavzusida esse tayyorlash va uning taqdimotini o‘tkazish.

13. “Dunyoning ilmiy manzarasi va evolyusiyasi” mavzusida esse tayyorlash.

14. “Dunyoni estetik idrok etishda badiiy asarlarning ahamiyati” mavzusida esse tayyorlash.

15. “Diniy fanatizmning asoslari va manbalari” mavzusida esse tayyorlash.

16. “Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar” mavzusida videorolik tayyorlash.

17. “Dunyo xalqlari miflari” haqida ma’ruza matni va krossvord tayyorlash

18. “Jozef Senturiyaning korrupsiyaga oid qarashlari tasnifi” esse tayyorlash.

19. J.Rumiy “Quyoshda ham dog‘ bor” deganda nimani nazarda tutadi (Ichindagi ichindadir asari asosida axloq tarbiyasiga oid esse tayyorlash); J.Rumiyning “Ovchi va lochin” rivoyatining mohiyati va uning tarbiyaviy ahamiyatini tahlili etish (Ichindagi ichindadir asari asosida).

20. “Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari” mavzusida esse tayyorlash.

21. “Islom nurli ma’rifat dini” mavzusida esse tayyorlash.

22. “O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari” mavzusida esse tayyorlash.

23. Islomda inson xuquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik adolat va tolerantlik mavzusida krossvord tayyorlash.

24. Korrupsiya tushunchasi va uning oqibatlari mavzusida viktorina o‘tkazish, video roliklar tanlovi tashkil etish.

25. “Qur’on sura va oyatlari ma’nosi” mavzusida esse tayyorlash (sura yoziladi va yonida uning hozirgi davrda amaliyotdagi ifodasi, masalan Qur’onning 96 -“Alaq” (o‘qi - ta’lim olishga da’vat) surasining mohiyati dunyo va o‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar misolida ochib beriladi, yoki 8 sura sabr-toqat 46 oyatining ijtimoiy hayotdagi mohiyati ochib beriladi, sabr bilan bilim egallash lozimligi va x.k.).

26. M. Behbudiyning “Padarkush yoxud tarbiyasiz bolaning taqdiri” dramasini sahnalashtirish va namoyish etish.

27. M.Behbudiyning “Yoshlarga murojaat” va “Muxtaram yoshlarga murojaat” makolalarini tahlil etish va esse tayyorlash.

28. Tafakkur inersiyasining amal qilish mexanizmlari mavzusida esse tayyorlash

29. Tusi va Ibn Sinoning mantiqiy qarashlari mavzusida esse tayyorlash.

30. “Ona yurtim tabiati” mavzusida videoroliklar tanlovini tashkil etish.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsifa etiladi.

V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- dunyo xaqidagi eng qadimgi va zamonaviy falsafiy bilimlarni o‘rganish asosida

professional faoliyatni to'g'ri tashkil etish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish, davlat siyosatiga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish;

- ijtimoiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- yangi ontologiyaning yo'nalishlari, gen ontologiyasi, bioontologiya, tibbiyot ontologiyasining ijtimoiy ahamiyatini, fizik va falsafiy ontologiyaning o'zaro aloqasi va farqlarini bilish, axborotlashgan jamiyatda texnologiyalardan foydalanishda inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilish;

- tabiat ontologiyasida biosfera va noosferaning o'rni, ijtimoiy ekologiya, ekologik ta'lim va tarbiya haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;

- ijtimoiy faoliyatida dinning ijtimoiy kommunikativ va kompensatorlik, falsafasining dunyoqarashni shakllantiruvchi va metodologik, fanning mafkuraviy va bunyodkor kuch funksiyalari mutanosibligini ta'minlashi;

- internet ijtimoiy tarmoqlarida axborotni jamlash va ulardan foydalanish usullarini egallashi: o'zining kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilishi;

- bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- kiberterrorizm, kiberzo'rvonlik (cyberbullying)ga qarshi mafkuraviy immunitet shakllangan bulishi;

- globallashuv va barqaror taraqqiyotning omillarini, korrupsiyaning global ma'naviy inqiroz oqibati ekanligini bilishi, unga qarshi kurashda daxldorlik tuyg'usi shakllangan bo'lishi, ijtimoiy jarayonlarni prognozlashtira olish;

- tana va ruhiy sog'lik, tafakkur xavfsizligini ta'minlash, sog'lom turmush tarziga rioya qilish malakasi va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.

Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.

Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.

Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.

Yakuniy nazorat

Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Davronov Z., Shermuxamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa. -Toshkent: TMU, 2019.
2. Shermuxamedova N. Falsafa. 2-nashr. – Toshkent: “Idris Abdurauf Nashr”, 2020. 667-6.
3. Jalilov B. Dinshunoslik. -Toshkent: 2019.
4. Masharipova G. Dinshunoslik. - Toshkent: “Navro‘z” 2020.
5. Машарипова Г. Религиоведение. -Ташкент: 2020
6. Чумаков Л.Н. Философия, учебник. 2-издание.-Москва: ИНФРА-М, 2018.

Qushimcha adabiyotlar:

7. Jonathon A.C. Brown, hadith. -England, 2000.
8. Гилязиев З.З. Углубленное изучение истории и культуры ислама. – Казань: Изд-во ДУМ РТ. 2009.
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz, bilan birga quramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.
10. Jaspers. The origin and goal of history. New Haven and London. Yale University Press. 1965. P - 77, (P - 19)
11. K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. P - 341.
12. А.Азми. Введение в Хадисоведение. Казань: 2011.
13. A.Fitrat. Tanlangan asarlar -Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
14. Abu Xomid Gazzoliy Kimyoi saodat/ Ikki dunyo saodatiga eltuvchi bilim. - Samarqand: Imom Vuxoriy xalqaro markazi, 2019.
- 15 Ильин И.В. Урсул А.Д. Образование, общество, природа. -Москва: изд-во МГУ, 2016.
16. Кармин А.С., Новикова Е.С. Культурология. Киев, Харьков-Минск. 2003.
17. Qurbonova L. Falsafiy antropologiya va elitologiya uyg‘unligining o‘ziga xos xususiyatlari. Fals.fan. doktori. Diss. -Toshkent: O‘zMU, 2019
18. Лосев А.Ф. Бытие-Имя-Космос. -Москва: МЫСЛЬ, 1993.
19. Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati. -Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
20. Рудугин А.А. Эстетика. Москва: Изд-во Центр, 2003.
21. Rumi J. Ezgu majlis. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
22. Rumi J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharx. -Toshkent: Navruz, 2019.
23. Sayid Muhammad Xotamiy. Islom tafakkuri tarixi. -Toshkent: Minxoj, 2003.
24. Saifnazarov I., Saifnazarova F. Yoshlar va oila – Vatan tayanchi. -Toshkent: “Ta’lim nashriyoti” MCHJ , 2018. -132 b.
25. Temur tuzuklari. Kitobni nashrga tayyorlovchi Jumaboy Raximov.- Toshkent: Shodlik nashrieti. 2018.
26. O‘zbekiston falsafasi tarixi. X. Aliqulov mas’ul muxarrir, mualliflar jamoasi. Toshkent: Noshir, 2013.
27. Xudoyberganov R. O‘lim va barhayotlikning falsafiy metodologik tahlili. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
28. Sharipov M. Mantiq. -Toshkent: 2003.
29. Yassaviy Hoja Axmad. Devoni xikmat. -Toshkent: Navro‘z, 2018.
30. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. -Toshkent: Noshir, 2018.
31. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. - Toshkent, Noshir, 2016.
32. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni. Uning falsafasi.Toshkent: Noshir. 2016 314-499 betlar.
33. Shermuxamedova N.A. Falsafa -Toshkent: Noshir. 2012. 1207 6.

Axborot manbalari:

	34. www.philosophy.ru . 35. WWW.Zivonet.uz . 36. WWW.edu.uz .
7	Mazkur fan dasturi O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan va 2021 yil 26.08da tasdiqlangan fan dasturi asosida tayyorlangan.
8	Fan/modul uchun mas’ul: f.f.d.prof.B.M.Ochilova falsafa doktori, dots. B.E.Toshboyev
9	Taqrizchilar: JizzaxPI dotsenti, falsafa fanlari nomzodi P.Qulmatov JDPU dotsenti, falsafa fanlari nomzodi A.Amanlayev

